SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

QATAG‘ON SIYOSATINING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISH TARIXI: TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Rahmonov Oybek Ravshan o’g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagokika instituti “Tarix va falsafa” kafedrasi tayanch doktoranti
ORCID: https://orcid/org/0009-0009-5491-1196

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekistonda sovet davri qatag‘on siyosati tarixining o‘rganilish bosqichlari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Sovet davrida mazkur mavzudagi tadqiqotlarning mafkuraviy cheklanganligi, mustaqillik yillarida esa arxiv hujjatlarining ochilishi, yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishi hamda qatag‘on qurbonlarini reabilitatsiya qilish jarayonlari asosida yuzaga kelgan tadqiqotlar tahlil etilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari qiyosiy o‘rganilib, mavzuning dolzarb yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar
Qatag‘on siyosati, tarixshunoslik, repressiya, Sovet davri, O‘zbekiston tarixi, mustaqillik, tarixiy xotira.

Kirish. XX asrning 20–50-yillarida amalga oshirilgan sovet qatag‘on siyosati O‘zbekiston tarixida eng murakkab va fojiali sahifalardan biri hisoblanadi. Ushbu siyosat natijasida minglab davlat arboblari, jadid ziyolilari, din arboblari va oddiy fuqarolar nohaq jazolangan. Uzoq yillar davomida mazkur mavzu sovet mafkurasi ta’sirida bir tomonlama yoritilgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin uni xolisona o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bugungi kunda qatag‘on siyosati tarixi nafaqat voqealar tarixi sifatida, balki tarixshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qatag‘on siyosatiga oid tadqiqotlarni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – sovet davri (1920–1991-yillar). Bu davrda nashr etilgan adabiyotlarda qatag‘on siyosati kommunistik mafkura asosida baholanib, repressiya qurbonlari haqida haqqoniy ma’lumotlar keltirilmagan. Arxiv materiallari yopiq bo‘lganligi sababli tadqiqotlar cheklangan xarakterga ega edi.

Ikkinchi bosqich – mustaqillik yillari. Bu davrda arxivlar ochilishi, qatag‘on qurbonlarini oqlash jarayonlari va tarixiy adolatni tiklash siyosati natijasida mavzu

bo‘yicha ko‘plab yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. O‘zbekistonlik tarixchilar bilan bir qatorda xorijiy olimlarning ishlari ham ilmiy muomalaga kiritildi. Yangi izlanishlarda qatag‘on siyosati ijtimoiy, siyosiy, demografik va madaniy jihatlardan kompleks tahlil qilinmoqda.

Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tarixshunoslik tahlili, manbashunoslik hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokamasi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida qatag‘on siyosatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni keskin ortdi. Arxiv hujjatlarining ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida repressiya qurbonlari haqida yangi ma’lumotlar aniqlandi.

Tarixshunoslik tahlilidan ma’lum bo‘lishicha:

sovet davri tadqiqotlari asosan kommunistik mafkura ta’sirida yozilgan;

mustaqillikdan keyin voqealarga milliy manfaatlar va tarixiy adolat nuqtayi nazaridan baho berish kuchaydi;

arxiv hujjatlari asosida repressiya mexanizmlari, NKVD faoliyati va mahalliy ziyolilarga qarshi siyosat kengroq tadqiq qilinmoqda;

xorijiy tadqiqotchilar ishlarida O‘zbekistondagi qatag‘on siyosati SSSR umumiy repressiya tizimining tarkibiy qismi sifatida baholanmoqda.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, barcha arxiv materiallari to‘liq tadqiq etilmagan, hududiy qatag‘onlar tarixi hamda mahalliy aholi taqdiriga bag‘ishlangan maxsus tarixshunoslik ishlari yetarli emas.

Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi siyosiy qatag‘on siyosati Buxoro vohasida ham og‘ir oqibatlarga olib kelgan. Ayniqsa, 1937–1938-yillardagi “Katta terror” davrida davlat va jamoat arboblari, ziyolilar, diniy ulamolar, sobiq amaldorlar, savdogarlar, dehqonlar va boshqa ijtimoiy qatlam vakillari turli siyosiy ayblovlar bilan hibsga olingan va jazolangan. Buxoro hududidagi qatag‘on jarayonlarini o‘rganishda arxiv hujjatlari, xotira kitoblari hamda zamonaviy tarixiy tadqiqotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Buxoro davlat universiteti tarkibida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining faoliyat yuritayotgani ham ushbu mavzuni hududiy miqyosda o‘rganishga e’tibor kuchayganini ko‘rsatadi. Muzey xodimlari tomonidan “Buxoro viloyati Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi” va “Buxoro jadidlari – millatimiz munavvarlari” kabi ilmiy-ma’rifiy ishlar amalga oshirilgan. Buxoro operativ sektori bo‘yicha 1937-yil 10-avgustidan 1938-yil mart oyigacha davom etgan “Katta terror” amaliyoti natijasida 826 kishi qatag‘on qilingan. Ularning hududiy taqsimoti quyidagicha bo‘lgan:

Buxoro shahri – 127 kishi;

Buxoro tumani – 121 kishi;

Bauman (hozirgi Shofirkon) tumani – 107 kishi;

Vobkent tumani – 91 kishi;

Sverdlov (hozirgi Jondor) tumani – 20 kishi;

Kogon tumani – 99 kishi;

Romitan tumani – 15 kishi;

Qorako‘l tumani – 64 kishi;

G‘ijduvon tumani – 152 kishi.

Ushbu 826 kishining 395 nafari otuvga, 416 nafari 10 yil muddatga, 12 nafari 8 yil muddatga mehnat-tuzatish lagerlariga hukm qilingan. Ikki mahbus tergov vaqtida vafot

etgan, bir kishining aybi isbotlanmagan. Ushbu ma’lumotlar Buxoro hududida qatag‘on siyosati ommaviy tus olganini ko‘rsatadi. Yuqorida bayon qilingan malumotlar Rustam Shamsiddinovning o‘rganishlari natijasida tahlil qilingan, ammo, 2025-yildan yangi nashrdan chiqan Buxoro viloyati xotira kitobida(Matrix nashriyoti tomonidan tayorlangan) berilgan sonlar ancha to‘ldirilgan holatda berilgan va qatag‘onga uchraganlar soni ko‘proqdir.

Qatag‘on qilinganlarning katta qismi Sibir, Uzoq Sharq, Shimoliy hududlar, Ural va Shimoliy Qozog‘istondagi GULAG tizimiga qarashli lagerlarga yuborilgan. Ularning bir qismi og‘ir mehnat, sovuq, ochlik va kasalliklar natijasida lagerlarda vafot etgan.

Buxoro shahri bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlarda 1937–1938-yillardagi qatag‘on davrida 127 nafar shaxs jazolanganligi ko‘rsatiladi. Ular orasida sobiq savdogarlar, davlat xizmatchilari, ziyolilar va boshqa ijtimoiy qatlam vakillari bo‘lgan.

Masalan, Ismatov Hidoyat 1874-yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan bo‘lib, sobiq savdogar edi. U 1937-yil 19-sentabrda O‘zSSR NKVD huzuridagi “uchlik” qarori bilan sovet hukumati va uning rahbariyatiga qarshi salbiy fikrlar bildirganlikda hamda qatag‘on qilingan trotskiychi-millatchilarga xayrixohlik qilganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan. Uning mol-mulki ham musodara qilingan.

Yana bir misol — Sharopov Qamariddin. U 1887-yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan, sobiq savdogar bo‘lgan. 1937-yil 19-sentabrda “uchlik” qarori bilan partiya va hukumat tadbirlarini barbod qilishga qaratilgan targ‘ibot olib borganlikda hamda sovet hukumati sha’niga salbiy fikrlar bildirganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatish lageriga hukm qilingan.

Bu misollar qatag‘on mexanizmining oddiy fuqarolar va sobiq ijtimoiy guruh vakillariga nisbatan ham qo‘llanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “sovet hukumatiga qarshi fikr bildirish”, “millatchilik” yoki “aksilinqilobiy faoliyat” kabi keng va noaniq ayblovlar hukm chiqarish uchun asos qilib olingan.

Qatag‘on jarayonida “uchlik” faoliyati

Buxorodagi qatag‘onlarni o‘rganishda NKVD huzuridagi “uchlik” faoliyati alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot materiallarida 1937–1938-yillarda Buxoro operativ sektori xodimlari tomonidan tayyorlangan ayblov xulosalari Toshkentdagi “uchlik”ka yuborilgani va ko‘plab hollarda hukmlar mahbuslarning sud jarayonida bevosita ishtirokisiz chiqarilgani qayd etiladi.

1938-yil fevral oyidagi ayrim yig‘ilishlarda Buxoro operativ sektori xodimlari tomonidan taqdim etilgan ishlar asosida o‘nlab kishilar otuvga yoki uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan. Bu holat qatag‘onlarning individual jinoyatlarni aniqlashga emas, balki ommaviy siyosiy repressiya mexanizmi asosida amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Mustaqillikdan keyin Buxorolik qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va ularning hayoti hamda faoliyatini o‘rganishga katta e’tibor berildi. Buxoro davlat universitetidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan muassasalardan biridir. Muzey xodimlari arxivlar, kutubxonalar va boshqa fondlarda qatag‘on qurbonlarining hayoti va fojeali taqdiriga oid yangi ma’lumotlarni izlamoqda.

Buxoro viloyati bo‘yicha qatag‘on qurbonlarining nomlarini aniqlash va ularning taqdirini o‘rganishning davom etayotgani muhimdir. Chunki mavjud ma’lumotlar hali to‘liq emas. Tadqiqotchilar ham arxivlardan O‘zbekiston hududidan tashqarida qatag‘on

qilingan barcha buxoroliklar haqidagi ma’lumotlar hali to‘liq aniqlanmaganini qayd etadilar.

Xulosa. Qatag‘on siyosati tarixini o‘rganish O‘zbekiston tarixshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sovet davrida mavzu mafkuraviy yondashuv asosida yoritilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida tarixiy haqiqatni tiklashga qaratilgan yangi tadqiqotlar amalga oshirildi. Arxiv materiallari, yangi manbalar va xalqaro tadqiqotlardan foydalanish kelgusida mazkur sohada yanada chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borish imkonini beradi. Qatag‘on siyosatining tarixshunoslik tahlili mamlakat tarixini xolis baholash, milliy xotirani mustahkamlash va yosh avlodni tarixiy haqiqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шамсутдинов Р., Бекмуҳаммад У. 1937–38 йиллар: Бухоро // Xurshid Davron kutubxonasi. – 2017. –Б 67

2. Ўзбекистон Республикаси Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи. Қатағон қурбонлари ҳақидаги музей материаллари. – Тошкент,

3. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси. Атоллоҳ Хўжаев фаолияти ва қатағон қилиниши ҳақидаги материаллар..

4. Бухоро давлат университети. «Қатағон қурбонлари хотираси» музейи